




O'ZBEKISTONDA BUGUNGI KUNDA ICHIMLIK SUVIDAGI ISLOHOTLARI.

Ravshanqulov Firdavs Mashraf o'g'li

Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar

Ixtisoslashtirilgan maktab-internati

Tarix fani o'qituvchisi, Mustaqil tadqiqotchi

+99897-609-69-67

firdavsravshanqulov598@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18295901>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 12-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 19-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

ichimlik suvi, suv ta'minoti, suv xo'jaligi islohotlari, O'zbekiston, markazlashgan suv tizimi, suv infratuzilmasi, davlat dasturlari, barqaror rivojlanish, suv resurslarini boshqarish, aholini suv bilan ta'minlash, ichimlik suv narxlari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonda ichimlik suvi ta'minoti sohasida amalga oshirilayotgan zamonaviy islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash, suv ta'minoti infratuzilmasini modernizatsiya qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan loyihalarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Doimiy ortib borayotgan chuchuk suv tanqisligi sharoitida suv resurslarini boshqarishning havzaviy tamoyil¹lariga o'tish, ko'rib chiqilayotgan havzaning bir yoki bir nechta davlatlar hududida joylashganligidan qat'i nazar, tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu masala Markaziy Osiyo uchun tegishli hisoblanadi. Ichimlik suvi Markaziy Osiyoda jami suv iste'molining atigi 7 foizini tashkil qiladi, biroq uning ta'minoti barqaror rivojlanishda alohida ustuvor ro'l o'ynaydi. Ichimlik suvi sog'liq uchun muhim omil hisoblanadi. Biroq Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlaridagi suv ta'minoti va tozalash inshootlari texnik holatining yomonligi ularning to'g'ri ishlashiga to'sqinlik qilib, yuqori sifatli ichimlik suvi ishlab chiqarish imkonsiz qolmoqda. Mintaqa ko'p suv yo'qotilishidan aziyat chekmoqda (55 foiz gacha), 9,9 million kishi (jami aholining 13,5 foiz) toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega emas². So'nggi sakkiz yilda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari sohasiga 27,5 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Shundan 16,5 trillion so'mi davlat byudjetidan, 1 milliard AQSH dollari esa xalqaro moliya institutlarining investitsiyalari hisobidan qoplandi. Mazkur mablag'lar evaziga 3 627 ta inshoot hamda 40,6 ming km ichimlik va oqova suv tarmoqlari barpo etildi³.

¹ Havzaviy tamoyil (ing. Basin Principle) – bu zamonaviy suv menejmentining asosiy tamoyili bo'lib, unga ko'ra suv resurslari boshqaruvi tabiiy geografik birlik – suv havzasi (daryo havzasi) bo'yicha amalga oshiriladigan tizim.; // Global Water Partnership. Integrated water resources management in Cenral Asia: The challenges of managing large transboundary rivers. 2014.

² Vinokurov, E. (ed.), Akhunbaev, A., Chuyev, S., Adakhayev, A., Sarsembekov, T. Drinking Water Supply and Sanitation in Central Asia. Report 24/5. Almaty: Eurasian Development Bank. 2024. p. 5-6.

³ “O'zsuvta'minot” AJ. Toshkent suv ta'minoti tarixi. №7 may-iyun. 2022. 36-37 bet.; // <https://uzsuv.uz>.

E'tiborli jihati, bu orqali 7,7 million aholi ilk marotaba ichimlik suvi bilan ta'minlandi, shuningdek, 11,5 million aholining suv ta'minoti yaxshilandi. Shu bilan birga, 1,1 million aholi oqova tizimiga ulandi. Natijada ichimlik suvi qamrovi 63 foizdan 80,9 foizgacha, oqova suv xizmatlari esa 17,2 foizdan 20,9 foizgacha oshirildi. Bu ko'rsatgichni 2026 yilda "O'zsuvta'minot" AJ ning asosiy vazifasi qilib aholining ichimlik suvini 83,5 foizga yetkazish rejalashtirildi⁴.

Islahotlarning amaliy natijasi – yirik hududiy loyihalarda aksini topadi. Jumladan, "To'palang" suv ombori loyihasi asosida 147 km tarmoq tortilib, Surxondaryoning Sariosiyo, Denov, Sho'rchi, Qumqo'rg'on tumanlaridagi 141 ming aholining ichimlik suvi ta'minoti va sifati tubdan yaxshilandi.

Jizzax viloyatida esa Zarafshon daryosi suvlaridan foydalanish orqali Do'stlik, Paxtakor, Mirzacho'l tumanlari va Jizzax shahridagi 286 ming nafar aholining ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi.

Qashqadaryoda "Oqsuv-Dehqonobod" loyihasining amalga oshirilishi natijasida Dehqonobod tumanida yashovchi 76 ming nafar aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Ahamiyatlisi, tumanda aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 1,8 foizdan 51,7 foizga ko'tarildi.

Yirik loyihalardan yana biri Toshkent viloyatidagi "Qodiriya" suv inshooti rekonstruksiya qilinishi bo'ldi. Loyihani amalga oshirish natijasida 8 ming aholi ilk marotaba ichimlik suvidan bahramand bo'lgan bo'lsa, 265 ming aholining ichimlik suvi ta'minoti tubdan yaxshilandi.

2025 yil avvalida aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 74 foizga yetgan Buxoro viloyatining Olot va Qorako'l tumanlarida 275 ming aholi ilk bor ichimlik suvi bilan ta'minlandi⁵.

715 ming nafar aholi ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lsa, yana 2 mln 300 ming nafar aholining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanishiga erishildi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 2 trln 250,1 mlrd so'm o'zlashtirilishi ta'minlandi. 973 km ichimlik va 336,5 km oqova suv tarmoqlari tortildi hamda 67 ta ichimlik va 35 ta oqova suv inshootlari qurildi⁶.

Suv xarajatlariga e'tibor berilsa, O'zbekistonda suv narxlari 2018 yil 1 maydan boshlab o'zgarishlar boshlangan. Asosan, Toshkent shahridagi "Suvsoz" korxonasi tomonidan suv ta'riflariga o'zgartirish kiritildi, ya'ni 2018 yil 1 maydan boshlab suv ta'minoti bo'yicha 1 m³ uchun 245 so'm, oqova suv bo'yicha esa 1 m³ 210 so'm etib belgilangan⁷.

2018 yil 23 noyabrdan e'tiboran iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlariga 100 foiz to'lash tartibi belgilanadi. Unga ko'ra, har oyning 10 – sanasigacha haq to'lashni amalga oshirishi belgilanadi. 2019 yil 2 iyul kuni Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi mutasaddilari bilan bo'lib o'tgan anjumadan, ichimlik suvi iste'molchilari, xususan aholi ichimlik suvini hisobga olish asboblari bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi bildirilgan. 2019 yil 2 iyul holatiga ko'ra, respublika bo'yicha 58 foiz abonatlarda hamda 85 foiz inshootlarda suv hisoblagichlar o'rnatilmagan. Natijada, suv hisoblagich o'rnatilgan hamda o'rnatilmagan abonelar o'rtasida to'lovlarning farqi yo'qligi ayon bo'ladi. Ichimlik suv ta'minotining 26,9 ming km. (38 foiz) qismi hamda oqova chiqarish xizmatlarini ko'rsatish tarmoqlarining 1719,4 km. (22,4 foiz) qismi eskirgan. Shuningdek, majburiy ijro byurosi bilan

⁴ Akmal Murodov ishtirokidagi "Amalga oshirilgan muhim ishlar hamda 2026 yildagi rejalar xususida" nomli brifingdagi ma'lumoti.

⁵ Ahmad Suvonqulov. "O'zsuvta'minot" AJ boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi. O'zbekistonda suv infratuzilmasi: tizimli islohotlar va kelajak rejalari. 27.03.2025.

⁶ Yakubov X. Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari qurilish bo'yicha injiniring kompaniyasi UK direktori.

"Mashaqqatli mehnat ortidagi savobli ish. Aqua jurnali. №2 iyul-avgust. 2021. 33-34 betlar.; <https://uzsuv.uz>

⁷ Daryo.uz. Toshkentda 1-maydan sovuq suv narxi oshadi. 17.04.2018.; // <https://daryo.uz>.

birgalikda qarzдорligi mavjud abonetlardan undiruni yo'lga qo'yish orqali mavjud bo'lgan 307,9 mlrd. so'mdan 10 mlrd. so'mgacha kamaytirish rejalashtirildi⁸.

Markaziy Osiyoda ichimlik suvi uchun to'lov narxi eng yuqori mamlakat Qozog'iston hisoblanadi. Mamlakatda hududlarga qarab aholiga 1 m³ suv uchun 73 tengedan (1 ming 905 so'm) 304 tengegacha (7ming 934 so'm) belgilangan. Tojikiston aholisiga 1 somonidan (1 ming 61 so'mdan) 1,73 somonigacha (1ming 835 so'm) narxda suv yetkazib beriladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda so'nggi yillarda ichimlik suvi ta'minoti sohasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar aholini sifatli va barqaror ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida muhim natijalarga erishilayotganini ko'rsatmoqda. Davlat byudjeti va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan suv ta'minoti va oqova suv infratuzilmasining keng ko'lamda modernizatsiya qilinishi, yangi inshootlar qurilishi hamda eskirgan tarmoqlarning rekonstruksiya qilinishi natijasida millionlab aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlandi yoki mavjud ta'minot sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ichimlik suvi ta'minoti sohasida hali ham bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, suv tarmoqlarining yuqori darajada eskirgani, suv yo'qotishlarining katta ulushi, suv hisoblagichlar bilan ta'minlanganlik darajasining yetarli emasligi hamda suvdan foydalanishda iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi sohaning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi, muzliklar maydonining qisqarishi va transchegaraviy suv resurslariga bog'liqlik kelajakda ichimlik suvi ta'minotiga nisbatan yanada jiddiy tahdidlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ichimlik suvi ta'minoti sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, havzaviy boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish, suv tejovchi texnologiyalarni tatbiq qilish, raqamli hisobga olish tizimlarini rivojlantirish hamda aholining suvdan foydalanish madaniyatini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonda ichimlik suvi ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://Toshkentvil.uzsuv.uz>. "So'xda yangi suv inshootining ochilish marosimi bo'lib o'tdi" 2024.
2. Vinokurov, E. (ed.), Akhunbaev, A., Chuyev, S., Adakhayev, A., Sarsembekov, T. Drinking Water Supply and Sanitation in Central Asia. Report 24/5. Almaty: Eurasian Development Bank. 2024. p. 5-6.
3. "O'zsuvta'minot" AJ. Toshkent suv ta'minoti tarixi. №7 may-iyun. 2022. 36-37 bet.; // <https://uzsuv.uz>.
4. Lefebvre Henry, State, Space, World: Selected Essays (Minnesota University Press: Mineapolis, MN). 2009. 243-244 page.
5. Akmal Murodov ishtirokidagi "Amalga oshirilgan muhim ishlar hamda 2026 yildagi rejalar xususida" nomli brifingdagi ma'lumoti.
6. Viktoria Akchurina. Borders and Waters: Compartmentalized Security in the Eurasian Heartland. Chapter 15. 2018. 1-9 page.
7. Ahmad Suvonqulov. "O'zsuvta'minot" AJ boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi. O'zbekistonda suv infratuzilmasi: tizimli islohotlar va kelajak rejalari. 27.03.2025.

⁸ Daryo.uz. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi: aholi ichimlik suvini hisobga olish asboblari bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. 02.07.2019.; // <https://daryo.uz>.

8. Yakubov X. Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari qurilish bo'yicha injiniring kompaniyasi UK direktori. "Mashaqqatli mehnat ortidagi savobli ish. Aqua jurnali. №2 iyul-avgust. 2021. 33-34 betlar.; <https://uzsuv.uz>
9. Daryo.uz. Toshkentda 1-maydan sovuq suv narxi oshadi. 17.04.2018.; [// https://daryo.uz](https://daryo.uz).



**INNOVATIVE
ACADEMY**